

**Sirdaryo viloyati hokimi
Oybek AShURMATOVning
8 mart – Xotin-qizlar bayrami
munosabati bilan o'tkazilgan tantanada
so'zlagan tabrik NUTQI**

Guliston shahri

2016 yil 7 mart

**Assalomu alaykum, muhtarama
onaxonlar, aziz opa-singillar!**

Bugun bahorning ilk kunlarida hammamiz sabrsizlik bilan kutadigan ayni ana shu kunlarda dilimizdagi eng ezgu tilaklarni aytish uchun aziz onalarimiz, qadrli opa-singillari-mizning **8-mart bayramini tantanali ravishda nishonlamoqdamiz.**

Ana shu qutlug' ayyom bilan siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda **butun viloyatimiz** xotin-qizlarini chin qalbimdan tabriklash, barcha-barchangizga o'zimning chuqur hurmatim va ehtiromimni bildirishga ruxsat bergaysizlar.

Muhtaram yurtboshimiz Siz ayollar xaqida, **“dunyoda shunday bayram**

bo'lmasa agar, biz albatta o'zimiz shu bayramni tashkil qilar edik" degan edilar bu yurtimiz ayollariga bo'lgan yurtboshimizning chuqur ehtiromi va cheksiz hurmatlari belgisidir.

Vatanga, oilaga, hayotga va kelajakka ehtirom – ayolga, onaga ehtiromdan boshlanadi. Ayolini asragan el qudratli, onasini e'zozlagan farzandning tolei baland bo'ladi.

Dunyodagi jamiki buyuk zotlar, jahongirlar go'zal tabiatli onalar bag'rida o'sib-ulg'ayishgan. Shu bois ham ayolini azaldan muqaddas bilib, unga hurmat-izzat ko'rsatilgan.

Bu haqda gapirganda, avvalo, buyuk Alisher Navoiy bobomizning "Jannat onalar oyog'i ostidadir" degan hikmatli so'zlarini yana bir bor eslaymiz va mehribon, muqaddas Ona siymosi oldida barchamiz bosh egib ta'zim qilamiz.

Qadrli opa-singillar!

Muhtaram Yurtboshimiz
ta'kidlaganlaridek **Ayollar Ollohning buyuk
mo'jizasidir.**

Haqiqatda ham **“Ayol go'zal bo'lsa olam
go'zal, Ayol baxtli bo'lsa butun jamiyat
baxtli bo'ladi”** degan so'zning hayotimiz
falsafasiga aylanib borayotgani. Bizni yanab
bir bor **Kecha kim edik-u, bugun kim
bo'ldik** degan hayotiy xaqiqat bilan dunyoga
nazar tashlashga, kechagi kun bilan bugunni
solishtirishga va bugungi tinch zamonamizga
shukronalik qilishga undaydi.

**Shunday ekan “Qachon ayol hayotdan
rozi bo'ladi?** degan haqli savol bilan
yondashsak, o'ylaymanki to'g'ri bo'ladi.
Qachonki oilasi tinch, ro'zg'ori farovon
bo'lsa” hammamiz yaxshi bilamiz, hayot
tashvishsiz bo'lmaydi, lekin shu tashvishlar
kamroq bo'lsa, engilroq bo'lsa, ana shunda
ayol hayotdan rozi bo'ladi”

Qadrli opa-singillar!

Mamlakatimizda inson omili ayniqsa, ayollarga bo'lgan e'tiborning siyosat darajasiga ko'tarilgani, har bir yilni ayollar baxtu saodati bilan bog'liq ekanligi, jumladan, kuni kecha Muhtaram Yurtboshimizning farmonlari bilan adabiyot yo'nalishi bo'yicha **Guliston Akademik litseyining 2-bosqich o'quvchisi G'ozieva Nodira Rustam qizining Zulfiya nomidagi davlat mukofoti** bilan taqdirlanganligi qalbimizni g'urur va iftixorga to'ldirgan bo'lsa, yana bir tomondan Siz ayollarga bo'lgan Yurtboshimizning hurmat va e'tiborlari namunasidir.

Haqiqatda ham bugun o'zbek ayoli Senat a'zosi, rahbar, san'atkor, tadbirkor, o'qituvchi, jahon chempioni, oila tayanchi va barkamol avlodning ulug' onasidir.

Biz eng go'zal chiroyli narsalarni ayol siymosiga o'xshatamiz, **shu sababli ona Vatan deymiz.**

Shunday ekan hayotda o'z isbotini topgan haqiqat bor u ham bo'lsa **“faqat sog'lom onadan sog'lom farzand tug'iladi, faqat**

ma’rifatli ayolgina barkamol avlodni tarbiyalaydi”.

Oilalarimizning tinchi, farog’ati ham, biz erkaklarning xotirjamligi ham, hayotimizning go’zalligi ham, barakasi ham, aynan siz bilan.

Aziz va qadrli opa-singillar!

Bugun bu erga, mana shu muhtasham koshonaga tashrif buyurgan siz, aziz onalarimiz, opa-singillarimiz, qizlarimizni bayram bilan yana bir karra chin dildan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxtu-saodat, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman.

Yana bir bor bayramlaringiz muborak bo’lsin.

E’tiborlaringiz uchun rahmat.